

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida	423



УО'К: 304.44/316.42

TALABALARDA TAHLILIIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI**НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ****THE NECESSITY OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN STUDENTS****Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li** 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada tafakkur, tahliliy tafakkur, mustaqil sog'lom dunyoqarash, falsafiy tahliliy fikrlash tushunchalari mazmuni va xususiyatlari hamda yoshlarga oid davlat siyosatining mazmunini ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, jahonda turli mavkuraviy tahdidlar, manipulyatsion dasturlar, inson ongi uchun kurash avj olgan XXI asr sharoitida jamiyat a'zolarida, bиринчи navbatda talabalarda tafakkurni rivojlantirish, mustaqil sog'lom dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati tahliliy bayon qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются понятия и характеристики мышления, аналитического мышления, независимого мировоззрения и философского аналитического мышления, а также раскрывается суть государственной политики в отношении молодежи. Кроме того, аналитически обсуждается необходимость развития мышления и формирования независимого мировоззрения среди членов общества, особенно студентов, в условиях различных идеологических угроз, манипулятивных программ и борьбы за сознание человека, которые усилились в XXI веке.

Abstract

The article aims to elucidate the concepts and characteristics of thinking, analytical thinking, independent healthy worldview, and philosophical analytical reasoning, as well as the essence of state policies regarding youth. Furthermore, it analytically discusses the necessity of developing thinking and forming an independent healthy worldview among members of society, particularly students, in light of various ideological threats, manipulative programs, and the struggle for human consciousness that have intensified in the 21st century.

Kalit so'zlar: tafakkur, analitik(tahliliy) tafakkur, sog'lom dunyoqarash, mustaqil falsafiy fikrlash xususiyatlari, ijtimoiy shaxs, yoshlarga oid davlat siyosati, "Kapalak effekti", kelajak kadrlaridan talab qilinadigan asosiy kompetensiyalar.

Ключевые слова: мышление, аналитическое мышление, здоровое мировоззрение, характеристики независимого философского мышления, социальная идентичность, молодежная политика, "Эффект бабочки", основные компетенции, требуемые от будущих специалистов.

Key words: thinking, analytical thinking, healthy worldview, characteristics of independent philosophical reasoning, social identity, youth policies, "Butterfly Effect," essential competencies required from future professionals.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, insoniyat butun tarixi mobaynida atrof-olam, undagi o'zining o'rni, harakatlarining maqsadli va manfaatli, buguni va ertasi farovon bo'lishiga, tabiiy-ijtimoiy qonuniyatlar va ularning mohiyati haqida bilishga intilib kelgan. Ijtimoiy-tabiyy ehtiyoj natijasida fikrlash – tafakkur tarzi shakllanib uzluksiz rivojlanishda davom etadi. "Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridanda xavfliroq tus olgan"[1] bir sharoitda insoniyat tafakkurini boshqarish uchun kurash jarayoni avjiga chiqmoqdaki, bunda tafakkur yuritishning so'g'lom ruhda bo'lishini ta'minlash har bir xalq uchun dolzarb masala hisoblanadi. Inson faoliyatining samaradorligi, umrining farovon va saodatli bo'lishi eng avvalo uning fikrlash tarziga, olamni va atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini munosib qabul qilishi bilan bog'liq. Negaki, fikr-o'ylarimiz so'zlarimizga, so'zlarimiz muomalalmizga, muomalalmiz xulq-atvorimizga, xulq-atvorimiz esa tadqirimizga aylanishi mumkin. Biz uchinchi RENESANNS davri poydevorini qurishni maqsad qilayotgan ekanmiz, buning uchun eng avvalo sog'lom fikrlash xususiyatlarini hayotimizga singdirishimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini barchamiz munosib anglashimiz hamda bu

ILMIY AXBOROT

jarayonlarda faol pozitsiya bilan ishtirok etishimiz talab etiladi. Xalqning amalga oshirilayotgan islohotlarda birdamligi, tom ma'nodagi ijtimoiy shaxs sifatida yondashuvi islohotdan ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlovchi asosiy mezon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tafakkur – faqat insongagina xos bo'lgan va ayni damda uning insoniylik xususiyatlarini belgilab turuvchi ongli tarzda fikr yuritish jarayoni hisoblanadi. Adabiyotlarda "tafakkur" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tafakkur (ar. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarining umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtaida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi"[2]. Tafakkur ko'plab fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, fiziologiya, kibernetika, biologiya va boshqalar)ning tadqiqot ob'yekti hisoblangangligi bois ham har bir mutaffakkir o'z izlanishlari davomida sog'lom jamiyatni qaror toptirishda xalq tafakkurini yuksaltirish, insonlarni sog'lom fikrlash ko'nikmalariga ega qilib tarbiyalash masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Xususan, Arastu yoshlarda sog'lom fikrlash tarzini shakllantirish va shu asosda qurilgan oilaviy va ijtimoiy tarbiyani davlat tuzumini mustahkamlash vositasi, deb hisoblagan.[3] Suqrotning "O'z-o'zingni anglagin va bilgin" degan xitobidan ham tafakkur va uni yuksaltirish zarurati nazarda tutilgan.

Adabiyotshunos olim N.Komilovning "Tafakkur karvonlari" asari bilan Sharq tafakkur tarzining katta tarixga ega ekanligini chuqur falsafiy tahlillar asosida yoritib bergen. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida inson tafakkuri haqida fikr yuritar ekan: "Modomiki, u o'z zotidan fikr qilishga qodir bo'la olar ekan, u oqil bo'la oladi. Natijada uning zoti aqlga erishsa, u holda u fe'li bilan aqlga ega bo'ladi. Balki u aql bo'la oladi, u o'z zoti bilan fikr qiladigan, oqil bo'la oladi. Zotning o'zi ham aqlga erishdimi, demak, uning o'zi ham aqlga erisha oladi", degan fikr orqali aql va intellektning o'zaro uyg'un hamda farqli jihatlarini tahlil etgan.[4]

M.B.Gamezo "Tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi" ekanligini bayon qiladi. U tafakkurning umumlashgan, so'z vositasida va vositali atrof-muhit hodisalarini aks ettira olishini ta'kidlaydi[5]. M.Jeymsning fikricha, sog'lom tafakkurning asosida real voqelikni tushunish qobiliyatining anglanishi yotadi. O'z-o'zini anglagan shaxs o'zining ichki olami, tasavvurlarini to'g'ri fahmlaydi, undan qo'rqlaydi va munosib bayon eta oladi. O.Musurmonova, M.Quronov, U.Mahkamov, Sh.Mardonov, N.Egamberdiyeva, Sh.Shodmonova, Sh.Sharipov, O.Jamoldinova, I.Isayevlarning tadqiqot ishlarida tafakkurning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari, to'siq bo'layotgan omillar va ularni bartaraf etish masalalari o'rganilgan.

Maqolani tayyorlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan; qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik metodlaridan foydalaniłgan.

OLINGAN NATIJALAR VA MUHOKAMA

Butun insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlash, insonlarda sog'lom tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirish falsafa fanining maqsad va vazifalari asosini tashkil etadi. Falsafiy tafakkur yurita olish ko'nikmasini oshirish aynan analitik tafakkurni anglatadi. Analitik(tahliliy) tafakkur insonlarning voqeа va hodisalarga tanqidiy va tahliliy(har bir ta'sir etivchi omil va tarkibiy qismni atroficha o'rganish, inobatga olish) munosabatida namoyon bo'ladi. Buning uchun esa albatta tafakkurning mustaqilligi talab qilinadi. Tafakkur mustaqilligining tanqidiyligi esa mustaqil fikrlovichini voqeа-hodisalarga munosabati, uning xususiyatlari, muhim-nomuhim jihatlarini ajrata bilishida sezildi. Mustaqil tafakkurga ega bo'Imagan kishilar tayyor qarashlar asiriga aylanadi va ularda tafakkurning o'sishi o'zining tabiiy darajasidan orqada qoladi. Tafakkur qaramligi, qulligi jamiyat rivojiga, millat taraqqiyotiga to'siq bo'ladi. Tafakkur o'zgarmasa turmush ham o'zgarmaydi. Shuning uchun ham fikrning mustaqilligi uning sermahsulligi, samaradorligini ta'minlaydi. Qay bir inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyalar yaratilgan, nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul, samarali sanaladi. Demak, muayyan vaqt oralig'ida mustaqil ravishda bajarilgan ish ko'lami va sifati (tafakkurining kengligi, chuqurligi, tanqidiyligi asosida) tafakkur mustaqilligining o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Zero, tafakkur mustaqilligiga erishish, ya'ni mustaqil fikr va sog'lom dunyoqarash sohiblarini tarbiyalash bugungi taraqqiyotning muhim ma'naviy omillaridan biri hisoblanadi. Analitik tafakkur egasi har qanday masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyatiga ega bo'ladi.[6] Ana shu xususiyat bugungi turli

manipulyatsion jarayonlar geosiyosiy maqsadlar bilan birga uyg'unlashib yangidan yangi ko'rinishlar kasb etayotgan davrda ayniqsa zarurdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tag zamirida insonlarda, ayniqsa yoshlarda dunyoqarashni, fikrlash va ishlashga yangicha-munosib yondashuvni shakllantirish masalalari yotadi. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi 100 maqsadning 44 tasi bevosita o'ylash, fikrlash hosisasi bo'lgan inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgandir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonni barpo etish, o'zgarishlarni ro'yobga chiqarish dastavval insonning o'ziga bog'liq va undan boshlanadi, deb ta'kidlashlarida ham ana shunday ma'no mujassamdir.

Mamlakat miqyosida belgilangan chora-tadbirlar har bir sohasining har bir jihatiga alohida e'tibor qaratish, bunda turli fan va sohalar sinergiyasidan foydalanish bir qarashda katta ta'sirga ega bo'lmagandek ko'rinishi mumkin. Lekin aynan ana jihatlarning samarali bo'lishligi jamiyat miqyosidagi masalalarning samarali va hal qiluvchi yechimi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu holatni "Kapalak effekti" nazariyasi orqali to'la tushunish mumkin bo'ladi. Mamlakatimizda aynan ilmiy va pedagogik faoliyatda fanlararo yondashuv masalalari va istiqbollarini M.N.Abdullayeva, G.G'.G'affarova, G.O.Jalalovalar tadqiqotlarida fanlararo yondashuv masalasiga "Kapalak effekti" tarzida baho berishgan. Chindan ham bir qarashda bu masalalar arzimas, kichik bo'lib tuyulsada, sekin asta katta natijalarga turki bo'lishi, ulkan muvaffaqiyatlar olib kelishi aniq. "Fanlararo yondashuv, turli sohaviy bilimlardagi aloqadorlik bir obyektni turli nuqtai nazardan tekshirish zarurati tug'ilganda yuzaga keladi"[7]

Tarix saboqlariga nazar tashlar ekanmiz, bundan bir asr avval yashab ijod etgan ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" nomli asarida keltirilgan ijtimoiy "kichik" masalalar va ularga e'tiborsizlikning oqibatini eslab o'tish joiz. Sovet davrida ilk bor professorlikka loyiq ko'rilgan va keyinchalik 1938-yilgi qatag'on jarayonlarida qatl etilgan ma'rifatparvar inson o'z asarida quyidagilarni tilga olgan edi: "Tarbiya masalasiga millatga buyuk foya keltiradigan soha sifatida qaramoq lozim...", "Oiladagi oddiy mojaro va harakatlar bilan o'ralashmay, bolalarning aqliy ya'ni fikriy tarbiyasi millatning niyati bilan uyg'un bo'lishi lozim"[8] Shu bilan birga jamiyatdagi turli urf-odatlar, keraksiz masalalarga haddan ziyod sarf-xarajatlar va aslida insoniy saodat uchun o'ta muhim masalalarga e'tiborning susayib ketganligidan kuyinib yozadi. "Isrof" tushunchasining mazmunini va uni bartaraf etish choralarini ko'rilmasligidan achinadi. Ana shunday ijtimoiy "kichik" sanalgan illatlarning oqibati sifatida yosh avlod – kelajak egalari mute, shijoatsiz va eng achinalisi ilmsiz holda voyaga yetishi natijasida millatning qadri yerga urilishiga ham o'zimiz zamin yaratdik.

Ana shu tarixiy saboqlarni anglash va munosib xulosa qilishimiz, sodda qilib aytganda, tarixiy xatolarni qayta takrorlamasligimiz uchun ham tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishimiz talab qilinadi. Falsafiy fikrlashning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- tanqidiylik. Falsafiy fikrlash tanqidiy yondashuvni talab qiladi, ya'ni har qanday fikr va qarashlarni chuqur tahlil qilish va aniq asoslash lozim. Bu fikrlarni shubha ostiga olish va ular ustida mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. "Shubha – deydi, Imom G'azzoliy – haqiqatga olib boruvchi yo'ldir. Kim shubhalanmas ekan, hech narsani ko'ra olmaydi. Ko'rishdan mahrum odam esa tushunolmaydi. Tushunishdan mahrum kimsa misoli so'qir kabi yo'ldan adashadi".

- mantiqiylik ya'ni fikrlar o'tasida izchil bog'lanish bo'lishi zarur. Falsafiy fikrlashda har bir qarash ilmiy asoslangan va mantiqiy zanjir bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak;

- haqiqatni izlash – Arastuning fikricha, falsafaning maqsadi haqiqatni topishga intilishdir. Bu jarayonda mavjud bilim va nazariyalar tajribadan o'tkaziladi;

- abstraktsiyaga moyillik – falsafiy fikrlash aniq va konkret masalalardan chiqib, umumiy tushunchalar, prinsiplarga o'tishga harakat qiladi. Masalan, "hayotning ma'nosi", "burch va vijdon" kabi mavzular.

- universal yondashuv – falsafiy fikrlar ko'pincha biror konkret hodisa yoki muhammadan umumiy qonuniyatlarni topishga harakat qiladi va barcha insoniyatga tegishli savollarga javob izlaydi.

- turli nuqtayi nazarlarni hisobga olish – falsafiy fikrlash turli qarashlar, madaniyatlar va mafkuralarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu keng qamrovli yondashuvni oshiradi;

ILMIY AXBOROT

- o'z-o'zini anglash – falsafiy fikrlash o'z-o'zini tahlil qilish, inson o'z fikrlarini, e'tiqodlarini va his-tuyg'ularini tushunishga intiladi.

- savollarni to'g'ri qo'yish va unga javob izlash – falsafiy fikrlash doimiy savol berish va ularga javob izlash orqali rivojlanadi. Masalan, "Insonning burchi nima?", "Vijdon nima uchun kerak?" kabi savollar.

- cheksizlik va chuqurlik – falsafiy fikrlar ko'pincha cheksiz mavzularni qamrab oladi va har doim yanada chuqurroq ma'nolarni izlashga harakat qiladi. Bu bilan tafakkurning chegarasi yo'qligini, fikrlashdan to'xtamaslik lozimligini anglatadi. Bu xususiyatlar falsafiy fikrlashni boshqa turdag'i fikrlashlardan ajratib turadi va insonning hayotga, mavjudotga, o'ziga nisbatan ongli yondashuvini shakllantiradi.

Ilm-fan taraqqiyoti, sun'iy intellekt yutuqlarining hayotning barcha sohalariga jadallik bilan kirib borishi XXI asr insonlaridan kasb va unga axloqiy munosabatda yangicha yondashuv va kasbiy talablarni shakllantirmoqda. Ana shu jarayonlar pirovard natijasida "kelajak kasblari" iborasi shakllanmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda fan yutuqlari kasblar tarkibida ham muayyan o'zgarishlarni sodir bo'lismiga va shuning barobarida yangi kompetensiyaviy talablarni qo'yilishiga zamin hozirlamoqda. Kelajak kadrlaridan talab qilinadigan asosiy kompetensiyalarga quyidagilarni kiritishni faraz qilish mumkin:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot o'zgarishlariga moslashuvchanlik va tayyorgarlik – yangi texnologiyalar va sharoitlarga tez moslashish;
2. Raqamli savodxonlik – IT bilimlari, ma'lumotlarni boshqarish va tizimli-tahlil qila olish;
3. Tanqidiy, kreativ va sog'lom fikrlash – turli murakkab vaziyatlarda nafaqat ana shu vaziyatning o'zi uchun, qolaversa butunn ijtimoiy hayot barcha sohalari uchun samarali yechim topish;
4. Ijodkorlik – yangi g'oyalarni yaratish va innovatsiyalarni qo'llash;
5. Hamkorlik va kommunikatsiya – jamoada ishlash va samarali muloqot qilish;
6. Madaniy va ijtimoiy ong – xilma-xillikka hurmat va global miqyosda fikrlash;
7. Emotsional intellekt (EQ) – his-tuyg'ularni boshqarish va boshqalarni tushunish;
8. Tashabbuskorlik va o'zini boshqarish – o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish;
9. Jamoada ishlash qobiliyati – samarali hamkorlik va kommunikatsiya;
10. Madaniy diversifikatsiyani tushunish – turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda samarali faoliyat yurita olish;
8. Doimiy o'rganish qobiliyati – o'zining hayoti va ish-faoliyatiga aloqador sohada asosan, qolaversa barcha ijtimoiy sohaga oid zaruriy yangi bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirish va boshqalar.

XULOSA

Biz jahon hamjamiatida o'z o'rnimiz va so'zimizga, mustahkam va baraqaror taraqqiyot asoslari ega Yangi O'zbekistonni barpo etishni maqsad qilar ekanmiz, bu borada barcha islohotlarimizning ma'naviy tomonlariga, xalqimizning ilmiy-ma'rifiy yuksalishiga, yoshlарimizning sog'lom dunyoqarashga ega bo'lislari uchun bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilmog'imiz lozim. Talabalarda ular qaysi soha mutaxassisligidan qat'iy nazar tom ma'noda haqiqiy insoniy fazilatlarni tarbiyalashimiz, ijtimoiy shaxs sifatlarini kamol toptirishimiz har bir jamiyat a'zosining, birinchi navbatda ziylolarning burchidir.

ADBIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbir savollariga javoblar-T; "O'zbekiston", 2000 yil, 40-bet.
2. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. Ikkinchisi nashr. –Toshkent: "Sharq". 2000. 144 b.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. Abu Nasr Farobi. "Fozil odamlar shahri". – Toshkent: "Xalq merosi", 1993. –159
5. Ivanov P.I. Umumiyy psixologiya: Darslik, O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2008-y. – B. 214, 20-b.
6. G.M. Mirzaaxmedova. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi // pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona – 2024.11-bet.
7. М.Н.Абдуллаева, Г.Ф.Фафарова, Г.О.Жалалова. фанлараро ёндашувнинг мураккаб тизимларни тадқик этишдаги имконият ва истиқболлари. Монография. Тошкент. "НОШИР" 2020. 5-бет. (184 б)
8. A.Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. "Cho'lon" NMU. – T: 2013. 5-b

9. F.A. Ibroximov. Yangi O'zbekiston jamiyatida huquqshunos-pedagog kadrlarga bo'lgan kompetensiyaviy talablar. Educational Research in Universal Sciences, 2023

10. Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 2024/1. 788-794 pp.